



BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODINI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHNING AHAMIYATI

Chorshanbiyeva Sevara Baxtiyor qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti 401-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodini boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishdagi roli, uning o'qish darslaridagi qo'llanilishi va ta'limdagi hozirgi holati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, maqol, tez aytish, nutq, metod, o'qish, boshlang'ich sinf

Абстракт: В статье анализируется роль устного народного творчества в развитии речи учащихся начальной школы, его использование на уроках чтения, а также его современное состояние в образовании.

Ключевые слова: народное творчество, пословица, скороговорка, речь, метод, чтение, начальная школа

Abstract: This article analyzes the role of folk oral literature in the development of speech of primary school students, its use in reading lessons, and its current status in education.



Keywords: folk oral literature, proverb, rapid speech, speech, method, reading, primary school

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-sonli farmoniga muvofiq —Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamoniy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. ¹Biz uchun dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu – farzandlarimizni axloqi, tarbiyasi, mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan va mustahkam hayotiy pozitsiyasiga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir. ² Har qanday mamlakatning kuchi uning, ma‘rifatparvar insonlarning ko‘pligi, fuqarolarining ma‘naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta‘lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Demak, yurtimizda har bir inson o‘z ehtiyojidan kelib chiqqan holda qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish imkoniga ega bo‘ldi. Mustaqil Respublikamizda yoshlarga ta‘lim berish, fanlarni o‘rgatish bilan birga ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi belgilandi. Chunki fikrlash til va nutq, tafakkur bilan bog‘llq bo‘lib, fikrlash jarayonida faraz, mushohada, isbotlash, tahlil qilish paydo bo‘ladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasining —Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma‘qullangan. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637son / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70modda.



Boshlang'ich sinf o'qish darslarida barcha sathlarini o'zaro ichki bog'lanishiga asoslanib o'quvchilarga yetkazish, ularning nutqiy madaniyatini shakllantirish, nutqiy savodxonligini o'stirish orqali milliy ong va qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz, urfodat va an'analarimizni asrab-avaylaydigan, ma'naviy olami yuksak shaxslar qilib tarbiyalashimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutqni rivojlantirish, ayniqsa xalq og'zaki ijodiga asoslangan darslar orqali, juda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi: 1) o'qilgan matndan bir qismining chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi; 2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi; 3) hikoya mazmunini faqat bir sujet yo'nalishida so'zlab beradi. O'quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darslarida keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi: 1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; 2) hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; 3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish. O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi. Hikoyani o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi. Bular: 1) ijodiy qayta hikoyalash; 2) inssenirovka qilish; 3) o'qilgan asarga rasm chizish; 4) hikoyani davom ettirish.



Xalqimizning ijod mahsuli hisoblangan, zamonlar osha og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan badiiy asarlar xalq og‘zaki ijodi yoki folklor (inglizcha “folk” – xalq, “lore” – donolik, ya’ni xalq donoligi, donishmandligi) deb yuritiladi. Xalq og‘zaki ijodining, ertak, afsona, maqol, matal, latifa, laparlar, dostonlar, tez aytishlar, alla, topishmoqlar, naqllar, hikmatlar shu kabi janrlari keng ommalashgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu asarlar nutqiy rivojlanishning tabiiy manbai hisoblanadi. Hozirgi paytda boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo‘yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Shunday qilib, pedagogika ilmining hozirgi bosqichida boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishga nisbatan qo‘yiladigan talablar bilan ushbu talablar ijrosi o‘rtasida ziddiyatlar namoyon bo‘lmoqda. Nutq o‘stirish ongli o‘qishni, so‘zlash va yozishga o‘rgatishni, til haqida o‘quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo‘lgan bilim berishni, ularning lug‘at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e’tibor va qiziqishni o‘stirish, kitob o‘qishga muhabbat uyg‘otishni ko‘zda tutadi. Ba’zi bolalar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o‘zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug‘diradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida xalq og‘zaki ijodi orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirish jarayonida o‘quv dasturi va o‘qish savodxonligi darsligini hozirgi holatini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llarini ishlab chiqish zarur. Bu esa o‘quvchilarning nutq o‘stirish jarayoniga ijobiy samara beradi.

1-sinf o‘qish savodxonligi darsligida ba’zi matnlardan so‘ng savol-javoblar, og‘zaki qayta hikoyalash, matn asosida suhbat qurish, ifodali o‘qish, rolli o‘yinlar, voqealar ketma-ketligini topish, ertakdagi qahramonlarga ta’rif berish, matn mazmuniga mos maqolni tanlash, tanlab o‘qish kabi topshiriqlardan berilgan.



2- sinf o‘qish savodxonligi darsligida ba‘zi matnlardan so‘ng savol-javoblar, og‘zaki qayta hikoyalash, 1 ta mavzuda “ Klaster” metodi asosida topshiriq, rolli o‘yinlar, asar qahramonlariga ta‘rif berish, asar asosida savollar tuzish, 1 ta mavzuda “ Savollar gulshani” mashqi va “ Eyler-Venn diagrammasi “ metodi asosida topshiriq, voqealar ketma- ketligini topish, ertakdagi qahramonlarga ta‘rif berish, tanlab o‘qish kabi topshiriqlar berilgan.

3- sinf o‘qish savodxonligi darsligida ba‘zi matnlardan so‘ng savol-javoblar, og‘zaki qayta hikoyalash, rolli o‘yinlar, voqealar ketma- ketligini topish, ertakdagi qahramonlarga ta‘rif berish, matn mazmuniga mos maqolni tanlash, tanlab o‘qish, matn mavzusiga mos rejalar tuzish, matn mazmunining g‘oyasini 2 ta gap bilan aytish , asardan foydalanib savollar tuzish, 1 ta mavzuda “ BBB” metodi kabi topshiriqlar berilgan. Mazkur topshiriqlar orqali o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, fikrni izchil bayon qilish, so‘z boyligini oshirish, shuningdek, nutq madaniyatini shakllantirish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

4- sinf o‘qish savodxonligi darsligida ba‘zi matnlardan so‘ng savol-javoblar, og‘zaki qayta hikoyalash, xulosalash, rolli o‘yinlar, asar asosida sahna ko‘rinishi qilish, matnga mos maqol topish, asardagi qahramonlarga ta‘rif berish, matn mazmuniga mos maqolni tanlash, asarga rejalar tuzish, tanlab o‘qish kabi topshiriqlar berilgan.

Xullas, Boshlang‘ich sinf (1-4-sinflar) o‘quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturiga boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darsligi o‘quvchilarda tayanch va fanga oid belgilab berilgan (nutq o‘stirish) kompetensiyalarning shakllantirilishi moslashtirilgan. Darslikdagi xalq og‘zaki ijodi namunalarining ko‘lami va u asosida berilgan mavzuga doir topshiriqlar o‘quv dasturiga belgilangan me‘yorlarga mos holda yaratilgan. Biroq shu ta‘kidlab o‘tish kerakki, xalq og‘zaki ijodiga doir namunalar sonini ko‘paytirish (ayniqsa, 4- sinf o‘quv darsligida,



chunki ularning darslikda soni kam) va nutq o‘stirishga oid topshiriqlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lar edi.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodini boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida qanday qilib samarali o‘rgatish va uning o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishdagi o‘rni keng qamrovli hisoblanadi. Nutqning shakllanishi uchun badiiy va tilni o‘zlashtirishda xalq og‘zaki ijodining ahamiyati katta bo‘lib, bu metodik yondashuv o‘quvchilarning fikrini ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni keng qamrovli bilimga ega bo‘lishga yo‘naltiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqni rivojlantirish o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning birgalikdagi harakati orqali amalga oshirilishi kerak. Samarali metodlardan foydalanish orqali bolalarning so‘z boyligini oshirish, ularning grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishini ta‘minlash va erkin muloqot qila oladigan shaxslarni tarbiyalash mumkin. Nutqi yaxshi rivojlangan bola kelajakda o‘qishda muvaffaqiyat qozonadi, ijodiy fikrlaydi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining —Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma‘qullangan. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentabr, O_RQ-637-son / Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
3. Abdumanapova M. O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish usullari va unga qo‘yilgan talablar. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 04–07.



4. Ahmedova, M. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishda xalq maqollarining ahamiyati. Ta'lim va innovatsiya, 3(2), 45–52
5. Aydarova U.B. 1-sinf 1-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
6. Aydarova U.B. 1-sinf 2-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
7. Aydarova U.B. 1-sinf 3-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
8. Aydarova U.B. 1-sinf 4-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
9. Aydarova U.B. 2-sinf 1-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
10. Aydarova U.B. 2-sinf 2-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
11. Aydarova U.B. 2-sinf 3-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
12. Aydarova U.B. 2-sinf 4-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
13. Aydarova U.B. 3-sinf 2-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
14. Aydarova U.B. 3-sinf 3-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
15. Aydarova U.B. 3-sinf 4-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
16. Aydarova U.B. 4-sinf 2-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
17. Aydarova U.B. 4-sinf 3-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
18. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.
19. Toirova M.E. 3-sinf 1-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
20. Toirova M.E. 4-sinf 1-qism o'qish savodxonligi darsligi. – T.: Novda, 2023.
21. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich ta'limdan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – T.: RTM, 2017.